


PEDAGOGIK MAHORAT

9
2025



<i>YULDOSHEVA Dildora Unarboy qizi</i>	Talabalar akademik mobilligini shakllantirishning asosiy pedagogik-psixologik xususiyatlari	185
<i>AVAZOV G‘oyibnazar Berdiyevich</i>	Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatiga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	191
<i>BAKIROV Eldorbek Valijon o‘g‘li</i>	Eksperimental faoliyatni rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuv: milliy va xorijiy tajribalar asosida	195
<i>JUMAYEV Xushboq Soatmumin o‘g‘li</i>	Mantiqiy topshiriqlar orqali kichik yoshdagi o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish	198
<i>NAZAROVA Gulbahor Pirmanovna</i>	Developing sociolinguistic competence through gender-sensitive pedagogy in translator education	204
<i>SHARIFOVA Nigora Axtam qizi</i>	Oliy ta’lim jarayonida neyropedagogik tamoyillarni mavjud metodikalarga integratsiya qilish zarurati	208
<i>MURTAZOYEV Azamat Sunatulla o‘g‘li</i>	Bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy shakllantirishda interfaol ta’lim metodlarning o‘rni	212
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM		
<i>AHMADOVA Gullola Ali qizi</i>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini didaktik o‘yinlar orqali bilim va ko‘nikmalarini oshirish metodikasi	218
<i>G‘ANIYEVA Mahliyo Hayot qizi</i>	Zamonaviy maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonini davlat o‘quv dasturlari tatbig‘i asosida fasilitatsiya qilish pedagogik muammo sifatida	222
<i>KARAMATOVA Dilfuza Sadinovna</i>	Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonligini rivojlantirish	226
<i>XAITOVA Yulduz Saitovna, MAHMUDOVA Shahriniso Jamoliddin qizi</i>	Boshlang‘ich sinflarda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishning bugungi kundagi ahamiyati	230
<i>ABDULLAYEVA Mariyambibi Djumaniyozovna</i>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy va psixologik omillar	236
<i>ATAJONOVA Anorgul Jumaniyazovna</i>	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kognitiv faoliyatni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	240
<i>BAXRONOVA G.T.</i>	Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda elementar matematikaning roli	244
<i>JO‘RAYEVA Dilnoza O‘ktam qizi</i>	Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limga tayyorlashda xalqaro ta’lim dasturlaridan foydalanish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish	249
<i>QAHHOROVA Abera Sharopovna</i>	Badiiy matn tahlilida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: boshlang‘ich ta’lim tajribasi	254

**TALABALAR AKADEMIK MOBILIGINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

*Yuldosheva Dildora Unarboy qizi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Umumiy pedagogika” kafedrası o‘qituvchisi*

Mazkur maqolada oliy ta‘lim tizimida akademik mobillikning pedagogik va psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Akademik mobillik tushunchasi faqat talabaning boshqa oliy ta‘lim muassasasida yoki xorijda o‘qishi bilan cheklanmasdan, balki ta‘lim maqsadlari, mazmuni, metodlari va shakllarining yangilanishini ham o‘z ichiga olishi ta‘kidlangan. Pedagogik jihatdan shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim modeli, moslashuvchan va modullashtirilgan o‘quv dasturlari, kredit-modul tizimi hamda innovatsion va interaktiv o‘qitish metodlarining ahamiyati ochib berilgan. Psixologik nuqtayi nazardan talabalar moslashuvchanligi, mustaqil o‘qish va o‘zini boshqarish ko‘nikmalari, emotsional barqarorlik, madaniyatlararo muloqot kompetensiyalari va ichki motivatsiyaning zarurligi asoslangan. Tadqiqotda akademik mobillik jarayonini samarali tashkil etishda pedagogik va psixologik integratsiyaning muhimligi ko‘rsatib o‘tilgan. Natijada, akademik mobillik talabalarni global ta‘lim makonida intellektual, kasbiy va shaxsiy rivojlanishga tayyorlashda asosiy omil sifatida baholangan.

***Kalit so‘zlar:** Mobillik, dastur, pedagogik xususiyatlar, psixologik xususiyatlar, ma‘lumot, talab, o‘zgaruvchanlik, o‘zini o‘zi rivojlantirish, individuallashtirish, mehnat bozori.*

**MAIN PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF FORMING STUDENTS'
ACADEMIC MOBILITY**

This article analyzes the pedagogical and psychological characteristics of academic mobility in the higher education system. It is emphasized that the concept of academic mobility is not limited to a student's study in another higher education institution or abroad, but also includes the renewal of educational goals, content, methods and forms. From a pedagogical point of view, the importance of a person-oriented educational model, flexible and modularized curricula, a credit-module system, and innovative and interactive teaching methods is revealed. From a psychological point of view, the need for student flexibility, independent learning and self-management skills, emotional stability, intercultural communication competencies, and intrinsic motivation is based. The study shows the importance of pedagogical and psychological integration in the effective organization of the academic mobility process. As a result, academic mobility is assessed as a key factor in preparing students for intellectual, professional, and personal development in the global educational space.

***Keywords:** Mobility, program, pedagogical features, psychological features, information, demand, variability, self-development, individualization, labor market.*

**ОСНОВНЫЕ ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ
ФОРМИРОВАНИЯ АКАДЕМИЧЕСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ**

В данной статье анализируются педагогические и психологические особенности академической мобильности в системе высшего образования. Подчеркивается, что понятие академической мобильности не ограничивается обучением студента в другом вузе или за рубежом, а включает в себя обновление образовательных целей, содержания, методов и форм. С педагогической точки зрения раскрывается значение личностно-ориентированной модели образования, гибких и модульных учебных программ, кредитно-модульной системы, инновационных и интерактивных методов обучения. С психологической точки зрения обосновывается необходимость гибкости студентов, навыков самостоятельного обучения и самоуправления, эмоциональной устойчивости, компетенций межкультурного общения и внутренней мотивации. В исследовании показана важность педагогической и психологической интеграции в эффективной организации процесса академической мобильности. В результате академическая мобильность оценивается как ключевой фактор подготовки студентов к интеллектуальному, профессиональному и личностному развитию в мировом образовательном пространстве.

***Ключевые слова:** Мобильность, программа, педагогические особенности, психологические особенности, информация, востребованность, вариативность, саморазвитие, индивидуализация, рынок труда.*

Kirish. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida akademik mobillik tushunchasi ta’lim jarayonining muhim yo’nalishlaridan biriga aylanmoqda. Akademik mobillik faqatgina talabning bir oliy ta’lim muassasasidan boshqasiga o’tishi yoki chet elda o’qishi bilan chegaralanib qolmay, balki ta’lim maqsadlari, mazmuni, metodlari va shakllarining tubdan yangilanishini ham talab etadi. Mazkur jarayonning asosida talabning shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari, mustaqil o’rganish qobiliyati va madaniyatlararo muloqot ko’nikmalarini shakllantirish yotadi. Akademik mobillik talabning nafaqat bilim va ko’nikmalarini kengaytiradi, balki uning psixologik tayyorgarligini, mustaqil qaror qabul qilish layoqatini, global ta’lim maydonida erkin faoliyat yurita olish imkoniyatlarini ham kuchaytiradi. Shu sababli, akademik mobillikni pedagogik hamda psixologik nuqtayi nazardan chuqur o’rganish va uni ta’lim jarayoniga tatbiq etish hozirgi davrda dolzarb masalalardan biridir.

Metodologiya. Maqolada akademik mobillikning pedagogik va psixologik xususiyatlarini tahlil qilishda tizimli va integrativ yondashuv qo’llanildi. Pedagogik nuqtayi nazardan shaxsga yo’naltirilgan ta’lim modeli, moslashuvchan va modullashtirilgan o’quv dasturlari, kredit-modul tizimi, interaktiv va kooperativ metodlar hamda innovatsion ta’lim texnologiyalari asosiy tahlil obyekti sifatida belgilandi. Psixologik jihatdan esa talabalar moslashuvchanligi, mustaqil o’qish va o’zini boshqarish ko’nikmalari, emotsional barqarorligi, madaniyatlararo muloqot kompetensiyalari va ichki motivatsiya darajalari o’rganildi. Metodologik asos sifatida taqqoslash, tahlil, umumlashtirish va integratsiya usullari qo’llanib, akademik mobillik jarayonining o’zaro bog’liq pedagogik va psixologik komponentlari aniqlab berildi. Ushbu yondashuv akademik mobillikni nafaqat tashkiliy-texnologik, balki shaxsiy va psixologik jihatdan ham kompleks tarzda shakllantirish imkonini beradi.

Asosiy qism. Akademik mobillikning pedagogik xususiyatlari. Talabalarning akademik mobilligini shakllantirish, zamonaviy oliy ta’lim tizimining asosiy yo’nalishlaridan biri sifatida, pedagogik jarayonning tubdan yangilanishini talab etadi. Akademik mobillik faqatgina talabalarni geografik joyidan ko’chirish bilan cheklanmaydi, balki ta’limning maqsadlari, mazmuni, shakl va metodlarini zamonaviy talablar asosida qayta ko’rib chiqishni zarur etadi. Quyida akademik mobillikni ta’minlovchi asosiy pedagogik xususiyatlar kengroq yoritiladi:

1. Shaxsga yo’naltirilgan ta’lim modeli. Akademik mobillik sharoitida shaxsga yo’naltirilgan ta’lim yondashuvi asosiy tamoyil sifatida qaraladi. Har bir talabning individual ehtiyojlari, qiziqishlari, bilim darajasi va o’rganish uslubi inobatga olinishi zarur. Shaxsga yo’naltirilgan ta’lim modelida talabalar o’z ta’lim trayektoriyalarini mustaqil belgilaydi, bu esa ularning o’z-o’zini rivojlantirish, mustaqil ta’lim olish va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga bo’lgan motivatsiyasini kuchaytiradi. Bu yondashuv talabalarni faqat bilim olishga emas, balki mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va innovatsion echimlarni izlashga ham yo’naltiradi. Pedagogik jarayonda shaxsga yo’naltirilgan yondashuvni qo’llash akademik mobillikni muvaffaqiyatli tashkil etishning muhim omilidir.

2. Moslashuvchan va modullashtirilgan o’quv dasturlari. Akademik mobillikni rivojlantirishda o’quv dasturlarining moslashuvchan va modullashtirilgan shaklda tuzilishi zarur. Moslashuvchan dasturlar talabalarga o’z qiziqishlariga mos ravishda fan va modullarni tanlash imkonini beradi. Modullashtirilgan tizim har bir o’quv kursini mustaqil akademik birlik sifatida ko’rib, ularning kredit hajmini aniqlash orqali, talabning boshqa OTMda yoki chet elda o’qishni davom ettirishini osonlashtiradi. Kredit-modul tizimi asosida tuzilgan modellar akademik natijalarni xalqaro darajada tan olish imkonini yaratadi. Shu tarzda, moslashuvchan o’quv dasturlari talabalarni o’z o’quv rejalarini mustaqil va erkin shakllantirishga undaydi va akademik mobillik uchun qulay sharoit yaratadi.

3. Innovatsion ta’lim texnologiyalarining tatbiqi. Bugungi kunda akademik mobillikni rivojlantirishda raqamli ta’lim texnologiyalari muhim o’rin tutadi: Learning Management Systems (LMS), Massive Open Online Courses (MOOC) kabi platformalar yordamida talabalar istalgan hududdan zamonaviy ta’lim resurslariga kirish imkoniyatiga ega bo’lmoqda. Virtual almashinuv dasturlari va masofaviy kurslar orqali geografik cheklovlarsiz bilim olish imkoniyati kengaymoqda. Innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayonini interaktiv qiladi, ta’lim kontentini shaxsiylashtirish va moslashtirish imkonini beradi. Ta’lim texnologiyalarining tatbiqi akademik mobillikning global ta’lim makoniga integratsiyalashuvini jadallashtiradi.

4. Kooperativ va interaktiv o’quv metodlari. Akademik mobillikni rivojlantirishda an’anaviy ta’lim uslublaridan ko’ra ko’proq interaktiv va kooperativ o’qitish metodlariga urg’u berilmoqda: Guruhlarda ishlash, loyihaviy ta’lim, muammoli vaziyatlarni hal etishga qaratilgan o’qitish metodlari talabalarni faol fikrlashga va madaniyatlararo muhitda muvaffaqiyatli faoliyat ko’rsatishga tayyorlaydi. Talabalar o’zaro fikr almashadi, ijtimoiy va madaniy farqlarni hisobga olgan holda birgalikda qaror qabul qilish tajribasini orttiradilar. Bu metodlar orqali kommunikativ kompetensiyalar, jamoada ishlash qobiliyati va

madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalari shakllanadi. Shu tarzda, interaktiv va kooperativ metodlar akademik mobillikning ijtimoiy va madaniy tayyorgarlik asosini mustahkamlaydi.

5. Kreditlarning o‘zaro tan olinishini ta‘minlovchi tizimlar. Talabalarning akademik mobilligini samarali tashkil etish uchun kredit-modul tizimining xalqaro standartlarga moslashuvi muhimdir: Kreditlarning o‘zaro tan olinishini ta‘minlovchi tizimlar orqali talabalar boshqa OTMlarda yoki xorijda o‘qigan fanlarini va to‘plangan kreditlarini o‘z davlatidagi OTMda tan oldira oladi. O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimi ham kredit-modul tizimini joriy etish orqali xalqaro akademik mobillikni kengaytirish yo‘lida qadam tashlamoqda. Bu esa talabalarga ko‘proq moslashuvchanlik, o‘z ta‘lim trayektoriyasini mustaqil tanlash va o‘qishni istalgan nuqtada davom ettirish imkonini beradi.

Talabani bir oliy ta‘lim muassasasidan boshqasiga o‘tish imkoniyatini yaratish uchun u egallagan bilim va ko‘nikmalarning rasmiy ravishda tan olinishi shartdir. Boshqacha aytganda, tan olishsiz mobillik amaliy jihatdan amalga oshmaydi. Aksincha, aynan akademik mobillikning mavjudligi tan olish mexanizmlarini joriy etish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bois, bu ikki tushuncha o‘zaro bog‘liq va biri ikkinchisiz to‘liq funksional bo‘la olmaydi. Akademik mobillikning psixologik xususiyatlari. Akademik mobillik — bu talabani boshqa ta‘lim va madaniy muhitlarga olib kiruvchi murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, nafaqat bilim va ko‘nikmalarni kengaytiradi, balki uning psixologik rivojlanishiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Talabani akademik mobillik tajribasidan muvaffaqiyatli chiqishi, ko‘p jihatdan, uning psixologik tayyorgarligi, moslashuvchanligi va shaxsiy xususiyatlariga bog‘liq. Shu sababli, akademik mobillikni shakllantirish jarayonida psixologik omillarni chuqur o‘rganish va hisobga olish ta‘lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan.

Akademik mobillikdagi asosiy psixologik xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Moslashuvchanlik va adaptatsiya layoqati. Akademik mobillik doirasida talaba yangi o‘quv va madaniy muhitga moslashish zarurati bilan duch keladi. Adaptatsiya — bu shaxsning yangi shart-sharoitlarga moslashish jarayoni bo‘lib, akademik mobillikda bu ko‘nikma talabani psixologik chidamliligini va stressga qarshi turish qobiliyatini belgilaydi. Moslashuvchan talabalar yangi akademik talabalar, o‘qitish metodikasi, ijtimoiy va madaniy farqlarni qabul qilishga tezroq tayyor bo‘ladilar. Akademik muvaffaqiyat hamda psixologik barqarorlik ko‘p hollarda adaptatsiya qobiliyatining darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Shu bois, talabalarni mobillik dasturlariga tayyorlash jarayonida ularning moslashuvchanlik va adaptatsion resurslarini rivojlantirish zarur.

2. Mustaqil o‘qish va o‘zini boshqarish ko‘nikmalari. Akademik mobillik talabani mustaqil ta‘lim olish qobiliyatini rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi: Talaba o‘z o‘qish jarayonini mustaqil ravishda tashkil qilishi, o‘z ta‘lim faoliyatini rejalashtirishi va boshqarishi kerak. Metakognitiv ko‘nikmalar (o‘z o‘quv faoliyatini anglash, baholash va boshqarish) mustaqil o‘rganish jarayonining asosi hisoblanadi. Resurslarni to‘g‘ri boshqarish, vaqtni samarali taqsimlash va o‘z maqsadlariga erishish uchun harakat qilish qobiliyati akademik mobillikda muvaffaqiyat kalitidir. Talabalarni mustaqil o‘rganish va o‘zini boshqarish kompetensiyalariga tayyorlash, ularning mobillik dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta‘minlaydi.

3. Emotsional barqarorlik. Yangi akademik va madaniy muhitga o‘tish jarayonida talabalar ko‘plab emotsional sinovlarga duch keladi: Stress, sog‘inch, nostandart vaziyatlarga moslashish zarurati, muloqotdagi qiyinchiliklar — bularning barchasi emotsional barqarorlikni talab etadi. Emotsional barqarorlik — bu shaxsning hissiy muvozanatini saqlab qolish, noaniqlik va stress holatida konstruktiv harakat qila olish qobiliyatidir. Akademik mobillik doirasida emotsional barqaror talabalar muammolarga ijobiy munosabatda bo‘lib, o‘z maqsadlariga qat‘iyat bilan intiladilar. Tayyorlov jarayonida talabalarni stressni boshqarish texnikalariga va emotsional intellekt ko‘nikmalariga o‘rgatish zarur.

4. Kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyalar. Akademik mobillikda talaba turli madaniyat va jamiyat vakillari bilan muloqot qilish, hamkorlikda ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Samarali kommunikatsiya ko‘nikmalari talabadan faol tinglash, aniq va ravon fikr bildirish, turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarda mos ravishda harakat qilish qobiliyatini talab etadi. Madaniyatlararo kompetensiya — bu boshqa madaniyat vakillarining qadriyatlarini va an‘analarini tushunish va hurmat qilish, madaniy farqlarga moslashish qobiliyatidir. Akademik mobillik jarayonida madaniyatlararo kommunikatsiya ko‘nikmalariga ega talabalar yangi jamiyatga tezroq moslashadilar va ilmiy-iqtisodiy hamkorlikda faol ishtirok etadilar. Shu sababli, talabalarni madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy integratsiya texnikalariga o‘rgatish dolzarbdir.

5. Ichki motivatsiya va o‘z-o‘zini rivojlantirishga tayyorlik. Talabani akademik mobillik tajribasidan maksimal darajada foydalana olishi uchun uning ichki motivatsiyasi kuchli bo‘lishi kerak: Ichki motivatsiyaga ega bo‘lgan talaba bilim olishni o‘zining shaxsiy ehtiyoji va rivojlanish vositasi sifatida qabul qiladi. Aniq maqsadlar belgilash, o‘zini rivojlantirish uchun muntazam harakat qilish, o‘z ustida ishlash akademik mobillik tajribasining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardir. Faoliyatga yo‘naltirilgan talabalar nafaqat o‘qish jarayonida, balki yangi sharoitlarda ijtimoiy va kasbiy jihatdan ham muvaffaqiyat

qozonadilar. Shu bois, talabalarda ichki motivatsiyani shakllantirish va maqsadga yo‘naltirilganlikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratish kerak.

Talabalarning akademik mobilligini shakllantirishda psixologik tayyorgarlik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Moslashuvchanlik, mustaqil o‘qish va boshqaruv, emotsional barqarorlik, madaniyatlararo kommunikatsiya va kuchli ichki motivatsiya kabi psixologik xususiyatlar talabalarni global ta‘lim makonida muvaffaqiyat qozonishiga tayyorlaydi. Shu sababli, akademik mobillik dasturlarini tashkil etishda talabalarni har tomonlama — intellektual, shaxsiy va psixologik jihatdan tayyorlash majburiy hisoblanadi.

Pedagogik va psixologik integratsiyaning zarurati. Akademik mobillikni samarali shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy oliy ta‘lim tizimida shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarning uyg‘un rivojlanishini talab etadi. Talabalarni boshqa ta‘lim va madaniy muhitlarga moslashtirishda pedagogik hamda psixologik yondashuvlarning bir-birini to‘ldiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi xususiyatga ega bo‘lishi zarur. Pedagogik-psixologik integratsiya akademik mobillikni nafaqat tashkiliy va o‘quv nuqtayi nazaridan, balki shaxsiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanish jihatidan ham kompleks qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Xulosa. Akademik mobillik talabning zamonaviy ta‘lim jarayonida intellektual, kasbiy va shaxsiy rivojlanishining asosiy omillaridan biridir. Pedagogik jihatdan shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim modeli, moslashuvchan dasturlar va kredit-modul tizimi uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta‘minlaydi. Psixologik nuqtayi nazardan esa moslashuvchanlik, emotsional barqarorlik, mustaqil o‘qish va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Akademik mobillikni shakllantirish jarayonida pedagogik va psixologik integratsiya muhim ahamiyatga ega bo‘lib, talabalarni global ta‘lim maydonida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Shu bois, oliy ta‘lim tizimida akademik mobillikni kengaytirish, uni pedagogik va psixologik jihatdan puxta qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy ta‘limning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. Usarboeva D. Talabalarning akademik mobilligini shakllantirish mexanizmlari //Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 74-77.
2. Ximmataliyev D. O., Usarboeva D. U. Talabalarning akademik mobilligini shakllantirish mexanizmlarini rivojlantirish //Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 154-158.
3. Usarboeva D. Ta'lim jarayonini tashkil etishda innovatsion ta'lim metodlarining ahamiyati //Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany). – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 184-187.
4. Usarboeva D. Development of the mechanism for forming academic mobility of students //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2024. – Т. 2. – №. 8. – С. 40-43.
5. Khimmataliev D., Abdurakhmanova D., Usarboeva D. Advanced foreign experiences in organizing student independent education //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B10. – С. 272-277.
6. Musurmonov R. et al. Zamonaviy ta‘lim metodlari–ta‘lim samaradorligi kafolati //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. Special Issue 20. – С. 181-188.
7. Usarboeva D. The importance of innovative educational methods in organizing the educational process //Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany). – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 184-187.